



BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFATINI BAHOLASH VA TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO TADQIQOT DASTURLARINING O'RNI: MUAMMO VA YECHIMLAR.

Xoldarova Iroda Valijonovna¹,

Millaboyeva O'lmasxon Salimjonovna²

¹ Filologiya fanlari bo'yicha PhD Farg'ona davlat universiteti

² Farg'ona davlat universiteti 1-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6583833>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-may 2022

Ma'qullandi: 10- may 2022

Chop etildi: 14- may 2022

KALIT SO'ZLAR

boshlang'ich ta'lim, xalqaro tadqiqot dasturi, o'yin texnologiyasi, noan'anaviy test.

ANNOTATSIYA

Maqolada boshlang'ich ta'limda o'qitishning samarali usul va metodlari, didaktik o'yinlarning ahamiyati, jahon tajribasi hamda muammolarga yechim bo'la oladigan metodlar keltirib o'tilgan

Boshlang'ich sinf o'quvchisi hali o'yinga to'ymagan, onajonining erkatoyi, buvijonisining shirintoyi, qo'yingchi hammaning shirin erkasi bo'ladi. Bu hech birimizga sir emas, albatta. Tajribalarga asoslangan holda shuni aytib o'tishim mumkinki, didaktik o'yinlardan maqsadli foydalanish yaxshi samara beradi. Savodga o'rgatish jarayonidanoq o'quvchilarga qo'shimcha topshiriqlar berib borish, nafaqat dars jarayonini qiziqarli va mazmunli hamda samarali bo'lishida, o'quvchi tafakkurini o'stirib borishida ham ahamiyatlidir. Dars davomida bolalar darsdan zerikmasliklari uchun bir nechta didaktik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Masalan; "Kim to'g'ri aytadi?", - bu o'yin orqali o'quvchilarda to'g'ri talaffuzni tarkib topishiga erishish mumkin. Shu bilan bir vaqtda unli - undosh tovushni ham farqlab boradi. Misol tariqasida; maktab-maktab, go'sht-go'sh, daraxt-darax, g'isht-g'ish,

chiroq-chiroq, bog'cha-boxcha, igna(nina)-iyna, danak-danay, hamda

"R" tovushi ishtirok etgan so'zlar talaffuziga ham e'tibor qaratib: randa, rom, roz, ro'mol, rapida, rohat, rang, ritm, rubob, risola, ramz, rizq, ravon, rul, rost, arra, karra, barra, marra, durra va hokazo. Aynan savodga o'rgatish davridanoq biz bolalarga unli tovushlarga bo'g'in hosil qilishi mumkinligini tushuntirib, uqtirib borishimiz va o'z navbatida unli-undosh tovush birikishidan so'z hosil bo'lishini qayta-qayta ta'kidlash orqali tushuntirib, uqtirishimiz kerak, toki bolalar kelgusida bo'g'in va so'z uni hosil bo'lishida unli tovushlar asosiy rol o'ynashini unutmasinlar.

"Tovushlarni farqlaymiz" - didaktik o'yinida esa, o'quvchilar qo'llarida oina tutib, oinada o'z aksini ko'rgan holatda tovushni talaffuz qiladi, bu bevosita ko'rgazmali jarayon bo'lib, bolada tovush haqida real-aniiq taassurot, tasavvur, tushuncha hosil qiladi.



Aynan, mana shu didaktik o'yin orqali o'quvchida unli va undosh tovush hamda ularni farqli jihatlari haqida aniq tasavvur tarkib topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, bola unli tovushni talaffuz qilganda og'izdan chiqayotgan tovush hech qanday to'siqqa uchramasligiga, istalgancha cho'zish mumkinligiga, unli tovushlar un-ovozdan tarkib topganligiga to'la ishonch hosil qilgandagina bola-o'quvchida to'laqonli bilim hosil bo'ladi. Undosh tovushni talaffuz qilganda esa, aksincha, tovush talaffuzida og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchrashini, lab-lab, til oldi, bo'g'iz, sonor (jarangli -jarangsiz) undosh tovushlarni ham xotirasida muxrlanib qolishida ahamiyatlidir.

Shuningdek, jarangli va jarangsiz jufti bor tovushlarni tushuntirayotganda "Farqini top", "Yodda tuting" kabi didaktik o'yinlar orqali undosh tovushlar yanada aniq tushuntiriladi.

"Z" va "S" tovushlarini olaylik. Ko'rgazmali metod yordamida nasos, pufak, ninachi rasmlarini ko'rsatib, nasosdan qanday ovoz chiqadi? Bolalar-----sssss, pufakning ichidagi havo-dami chiqayotganda qanday ovoz keladi? -----sssssss,juda yaxshi ninachi qanday ovoz qiladi?-----zzzzz.Ushbu metod orqali bolalar "S" ni talaffuz qilganda og'iz bo'shlig'idan sirg'alib chiqayotganini, "Z" talaffuz qilganda jarangdor hamda cho'ziq aytilayotganini hamda oinada ko'rishganda lablar kulgu-tabassum holatiga kelishini ko'radilar, bu holat xotiralarida muhrlanib "Z"ning jarangdorligi, "S"ning jarangli yo'qligi yodda saqlanib qoladi.

Yana bolalarni boshlang'ich testga tayyorlashga ham shu didaktik o'yinlardan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Masalan: o'quvchilarda ilk test tushunchalari va ularni bajarish texnikasini

o'zlashtirib olishlarida rasmi testlardan foydalanilgani ma'qul. Bu tur testlar rasmda baliq-A) javobda -suv. B) javobda tosh, C) javobda esa tuproq rasmi keltirilib, o'quvchi baliq qayerda yashay olishi, oziqlanishi haqida tushunchga egami yoki yo'qmi? - savoliga javob beradi. Testga javob berish jarayonida yangi tushunchalarni, ularning mohiyatini o'zlashtirib boradi. Eng muhimi shundaki, o'quvchi javob variantlari ichidan tanlagan javobi to'g'ri chiqsa, quvonadi, aksincha bo'lsa shu javobni haqiqatdan to'g'riligini topishga intilish orqali bilim olishga, o'rganishga harakat qilib boradi.

1- sinf o'quvchisi kelgusi o'quv yiliga 2-sinf, 3-sinf, 4-sinf bo'lib, bilim -ko'nikmalarni egallab boradi. Chorak oralig'ida va yakunida olinadigan oraliq va joriy nazoratlarda asosan o'quvchini o'zlashtirishini baholashda test jarayoni - ochiq va yopiq test savolliklariga javoblari asosida baholashga "o'rganib" oldik.

To'g'risini aytsam, bu jarayonda "ustamon" past o'zlashtiruvchilarim yaxshi natija ko'rsatib, hayratlantirishardi. Kuzatdim: ularga testni men o'qib berar edim, ba'zida qo'llariga berar edim, har ikki holatda ham bu "shovvozlar" meni dog'da qoldirib yaxshi natijaga erishardilar. Nima uchun, nimaga?! Bu "aqlilar", a'lochilar xatti-harakatini diqqat bilan kuzatib, shu tariqa test javobini belgilar ekanlar. Yaqinda, I chorak yakunida, o'zgacha yo'l tutdim: ya'ni test javobi berilgan variant harfi bilan bir vaqtda, unda keltirilgan javobni ham kiritishni topshiriq qilib berdim.

Masalan; "Iqboli buyuksan "she'rining muallifi kim, she'rdan parcha yozing.

- A) To'lqin Hayit.
- B) Anvar Obidjon
- C) Abdulla Oripov
- D) Tursunboy Adashboyev

Natija kutganimdan a'lo bo'ldi. Javobga:



“C” javob Abdulla Oripov . Bizlarga eslatmish hayotni,

Unutmang hech qachon ustodni. Shovvozlar “C” ni belgilab javobni yozmagan yoki yarim chala yozgan edilar. Yuqoridagi kabi javob bergan o’quvchim sanog’li, o’rtacha va “chaqqonlar” yaqqol ko’rindi.

Chaqqon – ko’chirmachilar faqat, doimgidek javob variantinigina yozishgandida. Ochig’i bu safar baholashda vijdonim qiynalmadi, nega deysizmi, chunki har safar ilojim yo’q javob xatosiz bo’lgach ko’chirmachiga “5” qo’yishga “majbur” edim, yana vijdonni qiynaydigan narsa a’lochi o’quvchini javob belgilashda xatoliklarga yo’l qo’yib qo’yishi sabab, past baho ham olar edi. O’ylamang bolaga ayro qarar ekan deb, men faqat bu tur joriy nazoratdan qoniqmay matematikadan Yozma ish, ona tilidan Diktant, o’qishdan yoddan, ifodali she’r so’rab, baholar edim, lekin bu galgi jarayonda qo’llagan usulimdan o’quvchilarimni osongina saraladim.

To’g’ri mening talabimga sanoqli o’quvchim javob bergani, demak shu o’quvchim hayotda mavjud vaziyatlarda bilim – tajribasidan foydalangan holda chiqib keta olishini, o’rtachalar harakat qilishini, ko’chirmachilarim ham hech yo’q hayot karvonidan “ tushib” qolmaslik uchun diqqatini ishga solishidan quvonib, ko’nglim taskin topdi.

Mening rahmatli bobom, har yakshanba men bilan Marg’ilon bozoriga borib, (uydagi o’g’ilning boshki farzandi edim) haftalik harajat qilib, ko’tarishib kelar edim. Marg’ilon bozoriga piyoda borar edik. Eng qizig’i ketarda bobom hayotidagi voqealarni so’zlab, ularga yaxshilik qilganlarni xotirlab men bilan hamoxang qadam bossa, qaytarda shitoblab ketar edi, bo’lmasa yelkalarida qopda narsa bo’lardi. Bobomga

yetib olish uchun, ularni yo’qotib qo’ymaslik uchun juda tez harakat qilar edim. Bir gal bobomni odamlar orasida topolmay qoldim, oq yaktakli, baland bo’yli(bobom bo’ylari 2m 10 cm bo’lgan) g’oz yuruvchi odamni – bobomni qidirayapman, ko’zlarim jovdirab yig’lamoqdan beri bo’lganimda, to’satdan bobom kelib qoldilar. Ham quvonib, ham ranjib turganimda, bobom bir voqeani aytib berdilar. Bobomning otalari, ularning otalari novvoychilikdan xabardor,boy va qassob bo’lgan ekanlar. Mol olishga borishda uch-to’rt gal olib kelgach, so’ng atayin adashtirishar maqsad, bola uch-to’rt gal davomida kelib-ketib yo’lni bilib oldimi-yo’qmi, shunga ko’ra bolaning zehnini baholashgan ekan. Bobom menga hech qachon tushkunlikka tushmaslikni, yo’lda qolsam dadil bo’lib maqsadlarim sari intilishni, matonatni, yig’lab emas quvonchla har bir kunni qarshi olishni o’rgatdi. “Maftuningman “ – badiiy filmida bir joyi bor: talantlarni qidirib yo’lga tushgan rejissor yordamchisi samolyotda ketayotganda hamrohi undan so’raydi: Bu yerlar qayer? U esa yelka qisib javob qaytaradi, shunda savolni bergan o’zi joyning nomini ayta turib, o’z yerini bilmaslik aybligini juda go’zal o’zbekona lutf bilan aytadi. Darhaqiqat, o’z yurtini bilmagan inson qanday qilib shu vatan farzandiman, buyuk bobolari amalga oshirgan ezgu ishlar va bunyodkorliklardan faxrlanishga, g’ururlanishga, fidoiy fuqaroman deyishga haqlimi?!

Yaponiya ta’lim tizimida bolalar kelajak egalari, ular albatta yapon tilini(eski yapon tili,xattotlik hamda qadimiy nafis adabiy san’atini) tarixi va madaniyatidan xabardor bo’libgina qolmay rasm-rusum va an’analarga hayoti davomida to’liq amal qilib borishi zarur bo’lib va buni ular sidqidildan bajarar ekanlar. Shuningdek,



Olmonlar ham shunday milliy an'ana va qadriyatlariga qat'iy amal qilib borar ekanlar.

Demak, biz ham yosh avlodga o'z joyini hurmat qilishni, asrab-avaylashni, fidoiy fuqaro bo'lishi uchun eng avvalo o'z millati tarixi va qadriyatlari hamda geografik joylashuvini yaxshi bilishga intilishini va shundagina chin fuqaro va ajdodlarga munosib avlod bo'lib kamol topishi mumkinligini yoshlikdan singdirib borish kerak.

Xalqaro o'quvchilar bilimni baholash tizimi – PISA, PIRLS, TALIS(rahbar va o'qituvchilar uchun so'rovnoma), boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun esa EGRA-1-3- sinf o'quvchilari o'qish savodxonligini nazorat qilish, EGMA – 1-3 –sinf o'quvchilarining matematik savodxonligini nazorat qilish, PIRLS-4- sinf o'quvchilarining, tabiat, o'qish, matematikadan savodxonligini nazorat qiladi.Ushbu baholash tizimi e'tiborini yana bir jihatga qaratadi.Test sinovdan o'tayotgan o'quvchilarning oilaviy sharoiti,ota-onasi to'liq yoki noto'liqligi,oilaviy,ijtimoiy muhiti, bolaning intilishi, bilim olishga havasini ham o'rganadi. Natijalar shuni ko'rsatmoqdaki, osiyolik bolalarda ijtimoiy kelib chiqishi yaxshi, ota-onasi bor, sharoitlar mujassam bo'lgan bolalar ko'rsatkichlari noto'liq oila farzandlari ko'rsatkichlaridan pastroq, Evropada esa aksincha. Fikrimning isboti sifatida, o'quvchim darslarimda hech narsaga qiziqmas, beparvo va loqayd

edi.Ota-onasi bilan suhbatlashib oilada noto'g'ri muhit mavjudligini aniqladim. Ya'ni, ota harbiy xizmatdan nafaqaga chiqqan, ona esa Marg'ilondan tushgani bois,farzandimiz "qishloqi" bo'lib qolmasin deb, og'zidan chiqqanini muhayyo qilishgan. Natijada farzandlari hamma narsadan bezgan, qandayki befarq, loqayd insonga aylangan. Uzoq tushuntirishlardan so'nggina,ota-ona farzand uchun ortiqcha muruvvat faqat zararligini menimcha tushunishdi, yana bilmadim.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi -nafaqat o'quvchi savodini chiqarish, balki u yashab turgan joy tarixi, an'analari, urf-odatlarini, yashab turgan hududning geografik joylashuvini, umuman olganda, har tomonlama bilim va uquv egasi bo'lishi darkor.

Ta'lim berishdan maqsad va ta'lim olishdan manfaat shundaki, olingan bilimlar hayotda naf keltirsin va ulardan omilkorlik bilan foydalana olsin.

Buyuk ajdodlarimiz bola tarbiyasiga,oila totuvligiga,ona salomatligiga, ta'lim – tarbiyasiga alohida ahamiyat qaratganlari bois ham buyuk va shonli tarixni bizga meros qoldirdilar.

Farzandimizni yaxshi ko'rsak uni haddan ortiqcha erkalatmay,ortiqcha "sharoit" yaratishdan,ularni xudbin bo'lib o'sishidan asraylik.O'quvchi qanchalik ko'p o'z ustida ishlasa, izlansa, o'rgansa shuncha ko'p natijalarga erishib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baijanov B. H. ACTIVATION OF EDUCATIONAL ACTIVITIES OF STUDENTS BY USING THE TECHNOLOGY "PROJECT METHOD" //Chief Editor.
2. Baydjanov B. COMPATIBILITY OF NEW RENAISSANCE PEDAGOGY AND JADID ENLIGHTENERS'VIEWS ON EDUCATION AND INFORMATION SECURITY //Конференции. – 2021.



3. Baydjanov B. K. PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF INFORMATION COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS //Theoretical & Applied Science. – 2021. – №. 7. – C. 171-178.
4. Baydjanov, B. (2021, August). HIGHER EDUCATION PROSPECTS AND ISSUES OF DEVELOPING INFORMATION SECURITY CULTURE AMONG STUDENTS (ON THE EXAMPLE OF FERGANA REGION): <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1284>. In RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES (No. 18.05).
5. Baydjanov, B. (2021, June). HIGHER EDUCATION PROSPECTS AND ISSUES OF DEVELOPING INFORMATION SECURITY CULTURE AMONG STUDENTS (ON THE EXAMPLE OF FERGANA REGION). In Конференции.
6. Dadakhon, T. (2022). Factors that Review Students' Imagination in the Educational Process. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 5, 551-557.
7. Dadakhon, T., & Sabohat, A. (2022). Developing Creative Thinking through Primary School Students Solving Problems. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 6, 71-76.
8. Farkhodovich, T. D. (2022). The Problem of Forming Interpersonal Tolerance in Future Teachers. International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology, 2(4), 12-15.
9. Kholdorova, I. (2019). SEMANTIC ANALYSES OF GENERATIVE LEXEMES WITH "BIRTH" AND "DEATH" SEMESIN THE UZBEK LANGUAGE. Theoretical & Applied Science, (10), 362-364.
10. Kochkorbaevna, K. B. (2022). FORMATION OF MORPHOLOGICAL COMPETENCE OF JUNIOR SCHOOLCHILDREN IN THE LESSONS OF THE NATIVE LANGUAGE. Gospodarka i Innowacje., 22, 56-60.
11. Kochkorbaevna, K. B. (2022). The Role and Importance of People's Oral Creativity in the Development of Primary School Student Speech. International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology, 2(4), 57-61.
12. Kochkorbaevna, K. B., & Mamasoliyevna, I. H. (2022). About Methods of Teaching the Native Language. International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology, 2(4), 26-29.
13. Kxoldorova, I. (2019). Antisemic relations of generative lexx in Uzbek language. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(6), 327-330.
14. Mukhtoraliyevna, Z. S. (2022). Develop Students' Speech by Working on Synonyms and Antonyms in Grades 3-4 in their Native Language Classes. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 6, 125-130.
15. Qizi, Rustamova Davlathon Toyirjon, and Mamajonova Feruzakhon Mamirjon Qizi. "Developing the critical thinking of primary school students." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11.10 (2021): 769-772.
16. SM Zokirova. Tillar tadqiqida kontrastiv lingvistika ilmiy paradigmasing o' rni. Filologiya fanlari bo'yicha PhD ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Farg'ona davlat universiteti
17. To'xtasinov, D. F. (2018). DIDACTIC BASES OF DEVELOPMENT OF LOGICAL THINKING IN SCHOOLCHILDREN. Central Asian Journal of Education, 2(1), 68-74.



18. Toyirovna, R. D. (2021). Critical Thinking Process in School Children. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 165-168.
19. Tukhtasinov, D. (2018). DEVELOPMENT OF LOGICAL THINKING OF PUPILS OF 5-9TH GRADES IN THE LESSONS OF MATHEMATICS. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych*, 209(22), 586-587.
20. Tukhtasinov, D. F. (2018). Developing Logical Thinking of 5-9th Year Students at Mathematics Lessons. *Eastern European Scientific Journal*, (2).
21. Tursinova, M. M. T. (2021). OZBEKISTONDA RUS TILINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR. *Студенческий вестник*, (17-8), 44-45.
22. Valijonovna, K. I. (2022). Multimedia Technologies and Their Use in the System of Preschool Education. *Journal of Ethics and Diversity in International Communication*, 2(4), 62-66.
23. Valijonovna, X. I. (2022). Improving of Motivation for Studying in Primary School. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 6, 131-137.
24. Zokirova S. Kontrastif dilbiliminde transferansiya ve interferensiya hadiselerine dair.
25. Zokirova S. M. et al. USE OF PLACE NAMES IN BOBURNOMA //Theoretical & Applied Science. – 2021. – №. 4. – С. 244-246.
26. Байджанов Б. Х. Таълим жараёнида илғор хорижий тажрибаларни самарали қўллаш механизмлари //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 2. – С. 514-519.
27. Зокирова С. М. Контрастивные исследования на современном этапе развития лингвистики //Учёный XXI века. – 2016. – №. 3-4 (16). – С. 23-27.
28. Зокирова, М. С. (2017). К вопросу о типах словосочетаний в разносистемных языках (на примере узбекского и таджикского языков). *The way of Science*, (2), 133.
29. Зокирова, С. М. (2014). Вопрос слововой комбинации в языках различных структур на примерах узбекского и таджикского языков. *Путь науки*, 135.
30. Курбанова, Б. К., & Каримова, З. (2019). Семантические свойства фразем в узбекском и киргизском языках. *Молодой ученый*, (28), 255-257.
31. Уринова Н. М., Байджанов Б. Х. Социально-педагогические особенности подготовки будущих учителей к воспитательной работе //Учёный XXI века. – 2016. – №. 4-2 (17). – С. 21-24.